

## **O'ZBEK TILIDAGI GAZETA VA JURNALLAR SARLAVHALARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

Ablakulova Ma'rifat Ikrom qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti xorijiy tillar fakulteti

II bosqich magistranti

Prof. Samigova Xushnuda Botirovna

Ilmiy rahbar

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi gazeta va jurnallarning sarlavhalari lingvistik va lingvakulturalogik jihadlari tahlil qilingan. Ularning bizning yurtimizda ilk bor paydo bo'lishi tarixi va sarlavhalarga munosabatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Sarlavhalarning turli grammatick kategoriyalarda kelishi, qisqa yoki uzoqligi, uyushiq bo'laklar, qofiya, undalma va boshqalardan foydalanish holatlari respublikamizdagi eng ommabop gazeta va jurnallardan olingan misollar bilan tasvirlangan.

### **Abstract:**

In this article, the linguistic and lingucultural features of the headlines of Uzbek language newspapers and magazines are analyzed. The history of their first appearance in our country and information about relationships are given in the headings. The use of headings in different grammatical categories, short or long, combined clauses, rhyme, emphasis, etc. are described with examples taken from the most popular newspapers and magazines in our republic.

### **Аннотация:**

В данной статье анализируются языковые и лингвокультурные стороны заголовков узбекоязычных газет и журналов. История их первого появления в нашей стране и сведения о родственных связях даны в рубриках. Использование заголовков в разных грамматических категориях, коротких или длинных, комбинированных предложений, рифмы, ударения и т. д. описано на примерах, взятых из самых популярных газет и журналов нашей республики.



**Kalit so'zlar:** lingvistika, sarlavha, rukn, publitsistik pafos, qofiya, undalma, ko'chirma gap, atov so'zlar, grammatik tuzilish xususiyatlari.

Gazeta jamiyatda bòlayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va ilmiy hayotga oid dolzarb axborotni hozirjavoblik bilan turli adabiy janrlarda ommaga yetkazadi va shu yo'l bilan o'z gazetxonlarida kundalik turmush voqealariga nisbatan ma'lum munosabat va tasavvur paydo bo'lishiga, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy g'oya va e'tiqodlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, jamoatchilik fikrining natijasi hamda ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi. Jurnal gazeta kabi jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish yo'li bilan uni shakl-lantirishga xizmat qiladi; omma ijtimoiy ongiga muayyan g'oya va qadriyatlarni singdiradi.

Bugungi kundagi gazetalar dastlab Toshkentda Markaziy Osiyoda ilk gazetalar – «Turkestanskiye vedomosti» («Turkiston vedomostlari») va «Turkiston viloyatining gazeti» 1870 yildan chiqa boshlagan. Toshkentda o'zbek tilidagi dastlabki mustaqil davriy nashrlarning paydo bo'lishi 1905–1907 yillarda yuzaga kelgan 1-rus inqilobi davriga to'g'ri keladi. Bu, shubhasiz, o'lka ijtimoiy hayotida tarixiy ahamiyatga ega muhim voqyea edi.

Mustaqillik tufayli davriy matbuotning ahamiyati har jihatdan yuksaldi. Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlar natijasida yangi-yangi nashrlar ta'sis etildi. Jumladan, Toshkentda «XXI asr», «Huquq», «Hurriyat», «Mohiyat», «Jamiyat», «Uzbekistan Today» singari gazetalar nashr etib kelinyapdi. Aksariyat gazetalar siyosiy partiyalar, vazirlik, tashkilot va yirik kompaniyalar tomonidan ta'sis etilgan bo'lib, mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy manfaatlariga xizmat qilmoqda. Bulardan tashqari, mustaqillik yillarida ko'ngilochar nashrlar soni ham ko'paydi. O'zbekiston Milliy kutubxonasi matbuot xizmati habar berishiga ko'ra bugungi kunda eng kòp, "Xalq so'zi" ("Narodnoye slovo")dan tashqari "O'zbekiston ovozi", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Hurriyat" va "Ishonch" gazetalariga buyurtmalar soni oshganligi kuzatilgan. Demak yuqorida nomlari sanab òtilgan gazetalar eng kòp òqiladigan gazetalar ekan. O'zbekistonda jurnalchilik. Turkistonda davriy matbuotga XIX asrning so'nggi o'n yilligida asos solingan: 1896-yil Toshkentda „Sredneaziatskiy vestnik“ („O'rta Osiyo darakchisi“) jurnalning birinchi soni bosmadan chiqadi. Keyinchalik „Turkestanskiy skorpion“ („Turkiston chayoni“, 1907), „Srednyaya Aziya“ („O'rta Osiyo“, 1912), „Stepnie miraji“, („Sahrodagi sarob“, 1914) jurnallari nashr qilinadi. Bu jurnallarda asosan adabiy janrlarda yozilgan asarlar chop etilgan. „Srednyaya Aziya“ jurnalda Turkistondagi mahalliy aholining madaniy hayotiga oid materiallar ham o'rinn olgan.



Turkistonda milliy jurnalchilik tarixiga atokli ma'rifatparvar adib va publitsist Behbudiy asos solgan. Uning muharrirligida 1913—1915-yillarda Samarqand shahrida „Oyina“ jurnalni nashr qilingan. Mazkur jurnal turkistonliklarni zamonaviy ilmu urfondan, ma'rifatdan bahramand etish, o'lkadagi milliy ta'lim tizimini isloh qilish kabi davr uchun dolzarb masalalardan babs yuritgan. O'zbek tilidagi ikkinchi jurnal „Al-Isloh“ nomi bilan Toshkentda nashr qilingan.

20-yillarning 2-yarmida O'zbekistonda o'zbek tilida „Yer yuzi“ (hozirgi „Guliston“), „Yangi yo'l“ (hoz. „Saodat“), „Maorif va o'qituvchi“, „Yangi kishloq“, „Alanga“ kabi ijtimoiy-siyosiy va adabiy yo'nalishdagi yangi jurnallar tashkil topdi. „Yer yuzi“ o'zbek tilidagi birinchi rasmlı-bezakli ommabop nashr hisoblanadi. 1930-yil boshida u 10000 nusxada chiqqan.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi e'lon qilingach, keng ommaga mo'ljallangan mavjud jurnallar faoliyati qayta tashkil qilindi. Respublikada jami 165 jurnal nashr etiladi, ularning yillik o'rtacha adadi 704,7 ming nusxa (2002). Yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda, milliy ongni o'stirishda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va adabiy-badiiy jurnallar yetakchilik qilmoqsa. Bu turkumga mansub „Sharq yulduzi“, „Guliston“, „Saodat“, „Muloqot“, „Fan va turmush“, „Yoshlik“, „Mushtum“ jurnallari katoriga istiklol davri jurnallari — „Tafakkur“, „Sog'lom avlod uchun“, „Jahon adabiyoti“ qo'shildi.

Bulardan tashqari, yangi ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy munosabatlarni ask ettiruvchi maxsus jurnallar — „Bozor, pul, kredit“, „Menejer“, „Optovik“, „Jamiyat va boshqaruv“, „Buxgalter kutubxonasi“, „Tijorat“, „Ekonomicheskoye obozreniye“ (rus va ingliz tillarida) ham tashkil topdi. Avtomobilchilar uchun mo'ljallangan „Avto-olam“, „Avto PressTIJ“ singari yangi nashrlar paydo bo'ldi, „Nash futbol“ (oylik nashr) va „Priljeniye k jurnal Nash futbol“, „PressTIJ“ va „Biznes Osiyo“ haftalik jurnallari chiqmoqda. Bulardan reklama materiallari keng o'rinn olgan. „PressTIJ“ tahririysi tomonidan tayyorlanayotgan „Press TIJ-TV“ xafitaligi 53 ming nusxada (1999) tarqaladi. 1998-yildan respublikada „Saida“ nomli rasmlı-bezakli ayollar jurnalli o'zbek va rus tillarida nashr qilinadi.

Shuning uchun sarlavhalar borasida obekt sifatida yuqoridagi gazetalardan foydalananamiz.

Gazetaning har bir soni qo'lga olinishi bilan nigohimiz darhol uning rukn va sarlavhalariga tushadi. Rukn sarlavha va matnga nisbatan yirikroq harflar bilan yoziladi. O'quvchi gazetani qo'lga olar ekan, birinchi navbatda, yirik harflar bilan aniq ifoda etilgan ruknlarni darhol ko'rib, o'qishga kirishadi, ammo ochroq rangdagi va kichikroq harflar bilan yozilgan sarlavhalarga unchalik e'tibor bermaydi.



Gazeta nutqining informativligini oshiruvchi muhim imkoniyatlardan biri hisoblangan ruknlar ham katta vazifani bajaradi. Ruknlar gazeta sahifalaridagi umumiy sarlavhalardir. Gazeta sarlavhalari o‘z vazifasiga ko‘ra ikki xildir:

1. Umumiy sarlavhalar, ya’ni ruknlar
2. Har bir matn uchun xoslangan sarlavhalar, ya’ni har qaysi matn mazmuniga moslangan alohida sarlavhalar.

Ruknlar bir necha maqola va xabarlarni bir mavzu ostida birlashtirib turadi. Masalan, hozirgi gazetalar sahifalaridagi kichik-kichik xabarlar, xronik axborotlar va boshqa materiallar, odatda, bir rukn ostiga jamlangan holda chop etiladi. Masalan, “Yangiliklar, voqealar, xabarlar” (“Xalq so‘zi” gazetasi, 2013-yil, 2- fevral) ruknida uch kichik xabar matni chop etilgan:

- 1.“Ishbilarmonlar muloqoti”.
- 2.“Kasanachiga ham, korxonaga ham foydali
- 3.“Modernizatsiya mahsuli”.

Eng dolzarb mavzular va matnlar ruknlarida yuqori publitsistik pafos yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi:“Bugun – jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni” (“O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 1992-yil, 5-iyun); “Tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va xalqlar ozodligi uchun!” (“O‘zAS” gazetasi, 1986-yil, 23-may); “Do‘sstarimiz tabrigi” (“O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 1991-yil, 6-noyabr) va boshqalar. Shaklan ixcham, mazmunan salmoqli, katta mazmunni kichik shaklda ifoda etuvchi bu kabi ruknlarda ijtimoiy asoslangan subyektiv modallik mujassamlashadi. Masalan, “Xalq farovonligi haqida g‘amxo‘rlik” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1986-yil, 16-may); “O‘zbekiston Xalq-demokratik partiyasining Dasturi va Nizomi loyihalari – umumxalq muhokamasida” (“O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 1991-yil, 17-oktabr) va boshqalar.

Hozirgi gazetalar sahifalarida ishlatalayotgan ruknlardagi o‘ziga xosliklardan yana biri shundaki, ularning ba’zilari gazetalar sahifalaridan tushmaydi, doimiy qo‘llanib turadi. Ayrimlari esa ma’lum mavsumlarda qo‘llanadi. Demak, ruknlar doimiy, mavsumiy va ma’lum sohaga xoslangan bo‘ladi. Masalan: “Musobaqa – millionlar ijodi”, “Planetamizda”, “Chet ellarda”, “Voqealar, yangiliklar”. (“O‘zAS” gazetasi, 1986-yil, 23-may); “Olamda nima gap?”. (“O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 1992-yil, 3-iyun); “Dunyo xabarları” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1987-yil, 28-aprel); “Yangiliklar. Voqealar. Xushxabarlar” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1991-yil, 16-iyul); “Teletayp lentasidan”, “Dunyo voqeaları” (“Qishloq haqiqati” gazetasi, 1985-yil, 22-mart); “Xalqaro ahvol” (“Toshkent haqiqati” gazetasi, 1985-yil, 5-iyul); “Har to‘g‘rida” (“Toshkent haqiqati” gazetasi, 1992-yil, 1-sentabr); “Respublikamiz



viloyatlarida” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1992-yil, 11-fevral); “Mehnating – ziynating” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1991-yil, 9-iyul); “Yuksak turmush madaniyati uchun” (“Qishloq haqiqati” gazetasi, 1985-yil, 10-iyul); “Reklama va e’lonlar”, “E’lonlar va bildiruvlar” (“Toshkent haqiqati” gazetasi, 1992-yil, 5-fevral) kabi ruknlar doimiy bo’lsa, “Paxtazor chorlaydi”, “Xirmoningizga baraka, aziz paxtakorlar” (“O’zbekiston ovozi” gazetasi, 1991-yil, 2-oktabr); “Himmati baland paxtakorlarga tasanno!” (“O’zbekiston ovozi” gazetasi, 1991-yil, 15-oktabr); “Don – rizq-ro’zimiz” (“Qishloq haqiqati”, 1991-yil, 8-noyabr) kabi ruknlar mavsumiydir. “Fan olamida” (“Toshkent haqiqati” gazetasi, 1992-yil, 14-fevral), “Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish – davr talabi” (“Qishloq haqiqati” gazetasi, 1985-yil, 10-iyul); “Shahar va tabiat” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1985-yil, 2-iyul); “Mutaxassis maslahati” (“Qishloq haqiqati” gazetasi, 1985-yil, 22-mart); “Xalq sog’ligi – yurt boyligi” (“Qishloq haqiqati” gazetasi, 1987- yil, 11-iyul) kabi ruknlar esa ma’lum sohaga xoslangan. Ruknlar har bir gazetaning o’ziga xosligini namoyon etuvchi belgilardan birdir. Masalan, “O’zAS” gazetasida, asosan, adabiyot va san’at sohasiga doir ruknlar ishlataladi: “San’at”, “Satira va humor”, “Taqid, adabiyotshunoslik”, “She’riyat minbari” va hokazo. “Toshkent oqshomi” yo’llanmasi bilan”, “Dam olish oqshomida”, “Hamshaharlar, Sizlar uchun” kabi ruknlar “Toshkent oqshomi” gazetasiga xoslangandir.“Maktab hayoti”, “Maktabgacha ta’lim”, “Tajriba”, “Millat mulki” kabi ruknlar, asosan, “Ma’rifat” da qo’llaniladi. Bunday ruknlar ana shu gazetalarning o’ziga xos xususiyatlari, vazifalari taqozosidir. Binobarin, gazetalarning funksional xususiyatlari, har qaysi gazetaning voqelik bilan, ijtimoiy hayot jarayonlari bilan uzviy bog’liqligi, ifoda maqsadi va usuli ularning ruknlarida ham aks etadi. Bir qator ruknlarni keltiramiz: “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish burchimizdir” (“Toshkent haqiqati” gazetasi, 1992-yil, 18-fevral); “Shu kunning mavzuida” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1992-yil, 5-fevral); “Iste’mol buyumlari ko’paysin” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1992-yil, 14-fevral); “Sizga qanday xizmat ko’rsatishmoqda?” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1992-yil, 7-fevral); “Deputatlar haqida hikoyalar” (“Toshkent haqiqati” gazetasi, 1992-yil, 6-fevral); “Har sohadan bir shingil” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1992-yil, 20- noyabr); “Yaxshi dam – mehnatga hamdam” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1991- yil, 3-iyul); “Do’stlikning qadriga yetaylik” (“Toshkent haqiqati” gazetasi, 1991-yil, 12-fevral); “Faxriylar xalq bilan birga” (“O’zbekiston ovozi” gazetasi, 1991-yil, 30- noyabr); “Energetika: yechimlar va muammolar” (“O’zbekiston ovozi” gazetasi, 1991-yil, 18-dekabr) va h.k.



Har qanday rukn unda jamlangan material mazmuni hamda matnlar ma’nosи bilan o‘zaro mutanosiblik kasb etishi, axborotning asosiy mazmunini, yetakchi g‘oyasini to‘g‘ri va aniq aks ettirishi lozim. Chunonchi, har bir rukn o‘sса material mazmuni bilan bog‘liqlik asosida quriladi: “Nazm, nasr” (“O‘zAS” gazetasi, 1990- yil, 19-oktabr); “Tijorat xabarlari va e’lonlari” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1991-yil, 27-may); “Iqtidor sohiblari minbari” (“Xalq so‘zi” gazetasi, 1991-yil, 8-may); “An’analар – xalq mulki” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1991- yil, 5-iyul); “Amaldagi internatsionalizm” (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1987- yil, 28-aprel) va boshqalar. Bu kabi ruknlarda mavzular, materiallar mazmuni bilan o‘zaro moslikni, uyg‘unlikni, rukn va matnning bir-birini taqozo qilishini ko‘rish mumkin. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni yanada aniqlashtirish maqsadida “Xalq so‘zi” va “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetalarining o’tgan davrlar davomida nashr qilingan bir necha sarlavhalarini tahlil qilib ko’raylik.

O’zbek sarlavhalarida sifat+ot shaklidan foydalanish

O’zbekistonning qaysi sohadagi ilk ishtiroki yoki qanday muvaffaqiyatlil e’tirof haqida gap ketgan “Ilk ishtirok va muvaffaqiyatlil e’tirof” sarlavhasi ostida e’lon qilingan. Zero, unda 57 mamlakatning yirik xalqaro tashkilotlari rahbar ayollari ishtirokida o’tgan xalqaro sammit tafsilotlari bayon etilgan.

Xalq ijodiyoti — beba ho qadriyat. (Mamatqul Jo‘rayev)

Yanglish tasavvur (Yana Muhyi taxallusining yozilishi haqida). (Abdullatif Turdialihev)

Shirinso‘z olima, mohir tarjimon. (Komiljon Jo‘rayev)

O’zbek sarlavhalarida kesimning tushib qolishi

Global iqlim o‘zgarishi va pandemiya. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Muqaddas Tirkasheva va Mohira Xo‘jayevaning nuqtayi nazari asosida e’lon qilingan maqolada global iqlim, pandemianing yaxshi va yomon tomonlari tahliliy ochib berilgan.

Majoziy ishq talqinlari. (Bobomurod Eraliyev)

Tarixni zar, o‘zni zargar bilsalar... (Hakim Sattoriy)

She’riy tarjima ko‘ngil ishi (Gulnoza Odilova)

Ikki qo‘lda ham malham tutib (1990) (Halima Xudoyberdiyeva)

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida agrar sohani rivojlantirish tamoyillari. (“Saodat” jurnali)

O’zbek sarlavhalarida qofiya va badiiy uslubdan foydalanish

Harir libosi aro yasan-tusan qilayotgan “kelinchak” haqida. Gazeta sahifalaridan o‘rin olgan “Eli shod, ko‘rki obod So‘x” sarlavhali maqolada aynan ushbu “kelinchak” haqida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Qalam ahlining jon ozig‘i – til (taniqli adib, tarjimon Ahmad A’zam bilan muloqot) (2013)

Kuyinib qaragan g‘ussa barqaror (1989)( Halima Xudoyberdiyeva)

O’zbek sarlavhalarida harakat nomidan foydalanish

Qiynoqqa solish. Ayni shu yo‘nalishni yana-da takomillashtirish maqsadida yaqinda qabul qilingan Prezident Farmoni mazmun-mohiyati, xususan, qiynoqqa solish bilan bog‘liq qilmishlar sodir etilishi oldini olishning samarali mexanizmlari joriy qilinayotgani haqida Bosh prokuratura Akademiyasi kafedra boshlig‘i Xurshid Karimov maqolasi orqali tanishish mumkin.

Sog`lik uchun eng muhimi - meyorni saqlash (“Saodat” jurnali)

O’zbek sarlavhalarida inkor ma’noning izohlanishi

Karantin yumshatilganini noto‘g‘ri talqin qilganlar haqidagi maqola. Lekin bunday qarashlar qanchalik asosli yoki asossiz ekanligi haqida muxbirimiz Botir Madiyorovning “Karantin cheklovları yumshagani xavf yo‘qoldi, degani emas” sarlavhali maqolasi orqali yana-da ko‘proq tushunchaga ega bo‘lish mumkin.

O’zbek sarlavhalarida joy nomlaridan foydalanish

O‘zbekistonda oliy ta’limning tarixiy ildizlari qayerga borib taqaladi?

“O‘zbekistonda oliy ta’limning tarixiy ildizlari yana-da qadimiy” sarlavhali maqola chop etildi. Chunki ushbu masalaga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, akademik Ahmadali Asqarovning ilmiy qarashlari singdirilgan.

Ozarbayjon xalqining buyuk shoiri (1953) ( G‘afur G‘ulom)

O’zbek sarlavhalarida so’roq va buyruq gaplardan foydalanish

Transport vositalarida, metrodagи, jamoat joylardagi (parklar, bozorlar va boshqalar) tashqi reklamalar tegishli qonunlar hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli tartibi asosida yuritilmayapti. Ana shunday tahlillaru o‘rganishlarga, tavsiyalarga boy bo‘lgan “Tashqi reklama sohasini tartibga solishda qanday muammolar bor?” sarlavhali maqola e’lon qilingan.

Muhyi emas, Muhiy? (Abdurahmon Pirimqulov)

Kitob o‘qishni tashlamang(“Saodat” jurnali)

Suvning muzga aylanishi qanday sodir bo‘ladi? (“Saodat” jurnali)

Okeandagi suv nega sho‘r bo‘ladi? (“Saodat” jurnali)

O’zbek sarlavhalarida ikkita sodda gapdan foydalanish



“Alohibda soliq imtiyozlari. Bu tuman ahliga nima beradi?” Farg‘ona viloyati davlat soliq boshqarmasi boshlig‘i Shukurullo Nisbatxonov muallifligidagi ushbu sarlavhali maqolada So‘x tumani aholisiga berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar haqida qiziqarli ma’lumotlar aks etgan.

Hayot hoshiyasidagi bitiklar yoxud “intellektual roman” xususida. (Muhammadjon Xolbekov)

O’zbek sarlavhalarida tarixiy shaxslar nomlarining ifodalanishi

Navoiy va Bobur asarlari polyak tilida. (Akmal Saidov)

Foniyning muxtara g‘azallari. (Olimjon Davlatov)

Atoiy emas, Otoyi (1959) (G‘afur G‘ulom)

Furqat (1859-1909)(o’zbek ziyolilari)

O’zbek sarlavhalarida uyushiq bo’laklardan foydalanish

Ruh, joziba va ohang (Istiqlol yillarida tarjimashunoslik va tarjima tanqidi). (Ibrohim G‘afurov)

Ma’lumotlar va... taassurot. (Abdusattor Jumanazar)

Ijodiy faollik va jasorat haqida (1962)( Abdulla Qahhor)

Menejmentning ob’yekti va sub’yekti, ularning o’zaro aloqadorligi. (“Saodat” jurnali)

O’zbek sarlavhalarida atov so’zlardan foydalanish

Ezgulikka chorlovchi “Oltun Yorug”. (Adhambek Alimbekov)

«Mushtum» to‘g‘risida (1961)( Abdulla Qahhor)

«Hayot qo‘shig‘i» (1940) (Abdulla Qahhor)

O’zbek sarlavhalarida ko’chirma gaplardan foydalanish

“Kimki dehqonlik ayladi pesha...” (Burobiya Rajabova)

Shuhrat Rizayev: “Yuksak mahorat — asosiy mezon” (2013) (suhbatlar)

Baxtiyor Mengliyev: “Til — millat timsoli, xalq g‘ururi” (2009) (suhbatlar)

Yodgor Sa’diyev: «Kino sehrli bir ko‘zgudir» (2008)

Lev Tolstoy: “O‘limim haqida ta’ziyanoma chop etilmasin”(Fathulla Nomozov)

“Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti va menejmenti” fanining o’rganish usullari. (“Saodat” jurnali)

O’zbek sarlavhalarida undalmalar va chorlovning ifodalanishi

Eh, bu qizlar, qizlarjon... (Umarali Normatov)

Yozuvchilik mahoratini tinmay takomillashtirib boring (1954) (G‘afur G‘ulom)

O’zbek sarlavhalarining bitta so’z yoki sodda gap bilan izohlanishi

Kuyunchaklik (Sultonmurod Olim)

Oy ham yolg‘iz emas (hikoya) (Qulman Ochilov)



She'r qadri (1982) (Erkin Vohidov)

Ashula to'g'risida (1962) (Abdulla Qahhor)

Oqibat devorlari (Halima Xudoyberdiyeva va Nabijon Boqiy suhbat) (1988)

Tarjimachilik tashvishlari (1962) (Abdulla Qahhor)

Teran qalb (1987) (Abdulla Oripov)

Shoir ayblaydi (1949) (G'afur G'ulom)

Husnbuzar (1961) (Abdulla Qahhor)

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, har ikkala tillarda ya'ni ingliz va o'zbek tillarida nashr qilingan o'ziga xos sarlavhali maqolalar ba'zi jihatlardan o'xhash, ba'zi jihatlari bilan esa farqlari ancha sezilarli. Misol uchun zerikarli va uzoq sarlavhalarni qiziqroq va e'tiborni tortish uchun kesimning tushirib qoldirilishi holatlari, atoqli otlardan, shaxs va joy nomlarining ifodalanilishi, so'roq va inkor gaplardan foydalanish, uyushiq bo'laklaridan, sodda va qo'shma gaplardan foydalanish, zamon kategoriylarining o'ziga xos ifodalanishi; qofiya, hazil, otlar zanjirining va sifat ot birga kelish holatlariga ko'ra tahlil qilish mumkin. Ingliz tilidagi sarlavhalar ko'proq globallashuv jarayonini izohlovchi sarlavhalar ostida nashr qilingan maqolalar ochiq oydin yoziladi. Hatto, eng daxshatli yoki sirli tuyulgan jamiyatdagi holatlar aniq ravshan izohlanadi. O'zbek tilidagi sarlavhalarда esa milliy va an'anaviy, axloqiy, oilaviy, ijtimoiy mavzularga ko'proq murojaat qilinadi. Oilaviy mavzularda farzand tarbiyasi, oiladagi o'zaro munosabatlar, ota-o'g'il, qaynona-kelin, er-xotin munosabatlarini tartibga soluvchi, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan sarlavhalar ostida nashr qilingan maqola va tezislarni ko'p uchratish mumkin.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Nafaqat Toshkent haqida... <https://shosh.uz/uz/toshkent-gazetalari-tarixi/>
2. Gazeta va jurnallar <https://www.uzjoku.uz/uz/menu/gazeta-va-jurnallar>
3. O'zbekiston Sariq Sahifalari ma'lumotnomasida topasiz. <https://uz.yellowpages.uz/rubrika/gazeta-va-jurnallar-tahririylatlari/toshkent>
4. Abdeev RF Axborot sivilizatsiyasi falsafasi / RF Abdeev. – M.: VLADOS, 1994 yil.
5. Olshanskiy D.V. Omma psixologiyasi. – SPb.: Piter, 2002. —368 b  
[https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_milliy\\_ensiklopediyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi)
6. Абдураҳмонов А. Газета журналистикаси терминларининг қисқача изоҳли луғати.— Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

7. Абдусаидов А. Газета тилининг айрим хусусиятлари // Мухбир.– Тошкент, 1983.№ 4.
8. Бобоева А. Газета сарлавҳалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти.– Тошкент. 1971.№ 2.
9. Бобоева А. Газета тилида таъсирчанликни таъминловчи айрим нутқий воситалар // Ўзбек тили ва адабиёти.– Тошкент, 1976.№ 1.
10. Бобоева А. Газета тилида стандарт конструкциялар // Тилшунослик масалалари.– Тошкент : Фан, 1978.
11. “Xalq so’zi” gazetasining 2020-yil 18 avgust soni.
- 12.“O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetada nashr qilingan maqolalardan foydalanildi.

